

**INKLYUZIV TA'LIM – ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BO'LGAN BOLALARNING IJTIMOYILASHUV OMILI SIFATIDA**

*D.M.Isoqjonova* – Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika va inklyuziv ta'lim ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

*A.Safarova* - Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika va inklyuziv ta'lim ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, inklyuziv ta'limning vazifalari va imkoniyati cheklangan bolalar integratsiyalashuvidagi o'rni va roli bayon berilgan.

**Аннотация:** В данной статье изложены суть инклюзивного образования, задачи инклюзивного образования, роль и роль в интеграции детей с ограниченными возможностями.

**Abstract:** This article outlines the essence of inclusive education, the tasks of inclusive education, the role and role in the integration of children with disabilities.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, uzluksiz ta'lim, integratsiya, ijtimoiy rivojlanish, ruhiy rivojlanish.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, непрерывное образование, интеграция, социальное развитие, психическое развитие.

**Keywords:** inclusive education, continuing education, integration, social development, mental development.

Jamiyatimizda imkoniyati cheklangan bolalar o'z o'rnini topib ketishi uchun yurtimizda bir qancha qonunlar, qarorlar, har xil islohatlar olib borilmoqda. Shular jumlasidan, Vazirlar mahkamasi tomonidan 12-noyabr 2021- yildagi „Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida“ gi 638-son qaror qabul qilinishi bunga yorqin namuna bo'la oladi.

Butunjahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya,  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi va boshqa me‘yoriy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor alohida yordamga muxtoj bolalar ham mehnat qilish, ta’lim olish, hayotda o‘z o‘rnlarini topib ketish huquqlariga egadirlar.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga rioya etilishini ta’minlash uchun uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yurutuvchi barcha mutaxassislar, barcha mutaxassislar alohida yordamga muhtoj kishilar haqida tushunchaga ega bo‘lib, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida qulay-shart sharoit yaratib, kerak bo‘lsa individuallashtirilgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inkluziv sharoitda me’yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori ta’lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta’lim olishiga yordam berishi zarur. Buning uchun har bir pedagog korreksion fanining asoslarini egallagan bo‘lishi kerak.

Inkluziv ta’lim dastlab XIX asrda fransiyada yashash ijod qilgan olim Aleksandr Blanshe kar bolalarni eshituvchi bolalar bilan birgalikda o‘qitish eng samarali yo‘l ekanligini o‘z faoliyati davomida isbotlashga harakat qilgan.

Inkluziv ta’limda bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak. UNICEF inkluziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimi kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga inkluzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inkluziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda bilim olish, o‘qish yozishni o‘rganishi uchun maxsus yordamga ega bo‘lish kerak. Inkluziv ta’lim nogiron bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, umumta’lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko‘zda tutadigan ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inkluziv ta’lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog‘lom bolalar o‘qiydigan umumta’lim maktablarida ham ta’lim tarbiya

olishlari mumkin ekanligi nazarda tutiladi. Buning uchun, maktab o'qituvchi tarbiyachi ham inkluziv ta'limga tayyor bo'lishlari maktabda jismoniy sharoit, o'qishga oid omillar talabga javob berishi kerak. Inkluziv ta'lim bu- davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlarni yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'iy na'zar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimidir. Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy emotsional tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchiliklarni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi''.

Inkluziv ta'lim quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

-Ta'lim muassasasida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologopedagogik korreksion sharoitlar yaratish ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish

-Maxsus ta'lim muassasi o'quvchilarini umum'ta'lim maktablari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash

- Jamiyatning oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar ustidagi o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish bolaning ehtiyojlarini qondirish ijtimoiy hayotga erta moslashtirish

-Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yabga chiqarish

-Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, inkluziv ta'limning joriy etilishi alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning sog'lom insonlar jamiyatiga integratsiyalashuvining muhim omili hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Televbeigenovich Y. D. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING THE STUDENTS OF THE GRADUATING CLASS OF A SPECIALIZED BOARDING SCHOOL FOR CHILDREN WITH HEARING DEFECTS FOR HIGHER EDUCATION //Confrencea. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 212-218.
2. Isoqjonova, D. M. "THE ROLE OF THE PRINCIPLE OF EXHIBITIONISM IN THE DEVELOPMENT OF VOCABULARY WEALTH OF DEAF STUDENTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS." *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY* Part 18 (2023).
3. R.Sh.Shomaxmudova “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslbuiy qo‘llanma. Toshkent 2011y.
4. Shomaxmudova Sh.R. “Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari” Toshkent 2018 y.